



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 9 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 9

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 9



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабалжанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Otabek Alimardonov “MIGRATION AS A TOOL OF PUBLIC DIPLOMACY IN CENTRAL ASIA: CHALLENGES, STRATEGIES, AND PROSPECTS”.....	5
2. Nilufar Djurayeva SOVET DAVRIDA XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARI: MAQSAD VA VAZIFALAR, NATIJA VA MUAMMOLAR.....	14
3. Нодира Джанибекова ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ОЛИЙ МАЖЛИСА ВТОРОГО СОЗЫВА.....	25
4. Боходир Эшов, Нурали Ҳазратов, Шавкат Каромов УСТРУШОНАДАГИ ИЛК ДАВЛАТ УЮШМАСИ ТАРИХИНИНГ ТАХЛИЛЛАРИ.....	30
5. Бехзод Исабеков ҚОВУНЧИ МАДАНИЯТИНИНГ КАТАКОМБА ҚАБРЛАРИ: ОҲАНГАРОН, КАНДИРСОЙ МИСОЛИДА.....	38
6. Ibragim Ibragimov QUYI AMUDARYO HUDUDIDA HUNARMANDCHILIK TARIXI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR.....	44
7. Shuhrat Norov ZARAFSHON VOHASI VILOYATLARIDA YOSHLAR TASHKILOTLARINING IJTIMOIIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI ROLI.....	48
8. Muxlisa Ro‘ziyeva O‘ZBEKISTONDA 1991–2025- YILLARDA BOLALAR SPORT SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI.....	53
9. Xo‘sinboy Sapayev KO‘CHMANCHI SAK QABILALARINING DINIY E‘TIQODLARI, URF-ODAT VA AN‘ANALARI.....	58
10. Mansur Fayzullayev XX ASRNING 60-80-YILLARIDA O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGINING IXTISOSLASHTIRILISHI (SURXONDARYO, QASHQADARYO VILOYATLARI MISOLIDA).....	63
11. Турғунжон Ярмагов ЭТНОГРАФИК ЖИХАТДАН ФОЛЬКЛОП МАНБАЛАРНИ ЎРГАНИШНИНГ ТАДҚИҚОТ МЕТОДЛАРИ.....	68
12. Gulom Djumamuratov O‘ZBEK ULUSIDAGI OROL O‘ZBEKLARI ETNIK TARKIBIGA DOIR MANBALAR TAHLILI.....	73



Mansur Xayrullayevich Fayzullayev,
O‘zbekiston Milliy universiteti
“O‘zbekiston tarixi” kafedrası tadqiqotchisi

XX ASRNING 60-80-YILLARIDA O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGINING IXTISOSLASHTIRILISHI (SURXONDARYO, QASHQADARYO VILOYATLARI MISOLIDA)

For citation: Mansur Kh.Fayzullayev. SPECIALIZATION OF AGRICULTURE IN UZBEKISTAN DURING THE 1960S-1980S (A CASE STUDY OF SURKHANDARYA AND KASHKADARYA REGIONS). Look to the past. 2025, vol. 8, issue 9.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17548812>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XX asrning 60-80-yillarida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirish siyosati va uning amalga oshirilishi masalalari tarixiy-tahliliy jihatdan o‘rganilgan. Ayniqsa, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari misolida paxtachilik, bog‘dorchilik va chorvachilik tarmoqlarining rivojlanishi, ularning iqtisodiy samaradorligi, qishloq xo‘jalik korxonalarining tashkil etilishi hamda mehnat resurslarining shakllanishi tahlil qilingan. Maqolada arxiv hujjatlari va statistik ma‘lumotlar asosida har ikki viloyatdagi ixtisoslashuvning bosqichma-bosqich rivojlanish tendensiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy siyosat, ixtisoslashtirish, Surxondaryo, Qashqadaryo, qishloq xo‘jaligi, paxtachilik, chorvachilik, bog‘dorchilik, iqtisodiy islohotlar.

Мансур Хайруллаевич Файзуллаев,
Национальный университет Узбекистана
Исследователь кафедры “Истории Узбекистана”

СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА УЗБЕКИСТАНА В 1960-1980-Е ГОДЫ (НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ И КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТЕЙ)

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматривается процесс специализации сельского хозяйства Узбекистана в 1960-1980-е годы на примере Сурхандарьинской и Кашкадарьинской областей. Анализируются развитие хлопководства, садоводства и животноводства, а также организация колхозно-совхозной системы, динамика трудовых ресурсов и эффективность сельскохозяйственного производства. На основе архивных данных и статистических источников показаны основные этапы формирования отраслевой специализации регионов.

Ключевые слова: экономическая политика, специализация, Сурхандарьинская область, Кашкадарьинская область, сельское хозяйство, хлопководство, животноводство, садоводство, аграрные реформы.

Mansur Kh.Faizullayev
National University of Uzbekistan
Researcher of the “History of Uzbekistan”

SPECIALIZATION OF AGRICULTURE IN UZBEKISTAN DURING THE 1960S-1980S (A CASE STUDY OF SURKHANDARYA AND KASHKADARYA REGIONS)

ABSTRACT

This article explores the specialization of Uzbekistan's agriculture during the 1960s-1980s, focusing on the Surkhandarya and Kashkadarya regions. It analyzes the development of cotton growing, horticulture, and animal husbandry, as well as the establishment of collective and state farms, labor resources, and economic efficiency. Using archival data and statistical reports, the study reveals the main stages of agricultural specialization and regional differentiation in the southern regions of Uzbekistan.

Index Terms: economic policy, specialization, Surkhandarya, Kashkadarya, agriculture, cotton production, livestock, horticulture, agrarian reforms.

Mavzuning dolzarbligi:

XX asrning 60-80-yillari O'zbekiston tarixida qishloq xo'jaligini industrial asosda qayta qurish va uning tarmoqlarini ixtisoslashtirish jarayonining faol bosqichi hisoblanadi. Bu davrda mamlakatning iqtisodiy siyosatini qayta yo'naltirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, qishloq mehnat resurslarini qayta tashkil etish ishlari amalga oshirildi.

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari iqlim va tabiiy sharoitiga ko'ra agrar yo'nalishda katta imkoniyatlarga ega bo'lib, ushbu hududlarda paxtachilik va chorvachilikni asosiy tarmoq sifatida rivojlantirish siyosat darajasiga ko'tarildi. Bu jarayon nafaqat qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining hajmini oshirish, balki hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvini shakllantirishga ham xizmat qildi. Shu sababli, mazkur masalani tarixiy jihatdan o'rganish mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining o'tmishdagi ildizlarini chuqur anglash uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Tadqiqotda tarixiy-tahliliy, manbashunoslik, tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Arxiv hujjatlari, rasmiy statistik ma'lumotlar va davr matbuoti materiallari asosida ma'lumotlar solishtirma tahlil qilindi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligining 1960-1980-yillardagi holati bo'yicha qator tarixiy va iqtisodiy tadqiqotlar mavjud. Shu bilan birga, hududiy ixtisoslashuv, ayniqsa Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari misolidagi tahlillar kam o'rganilgan.

Sovet davrida I.Xaydarov, A.Aripov, V.Sidorov, G.Jo'rayev kabi olimlar qishloq xo'jaligini rivojlantirish va kooperativ xo'jaliklar faoliyati haqida umumiy tadqiqotlar olib borganlar. Mustaqillik davrida esa M.Raxmatullayev, Q.Axmedov, Sh.Hamidov kabi olimlar bu jarayonning ayrim jihatlariga to'xtalib o'tganlar. Biroq, ayniqsa Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi ixtisoslashtirish siyosati va uning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari arxiv hujjatlari asosida kompleks o'rganilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot ilmiy yangilik va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shu bilan birga, iqtisodiy geografiya usullari orqali Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlari o'rganildi. Qishloq xo'jaligining ixtisoslashtirish jarayonidagi dinamik o'zgarishlar jadval va diagrammalar yordamida ifodalandi.

Tadqiqot natijalari:

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida qishloq xo'jaligining iqtisodiy asoslariga to'xtalib o'tsak, XX asrning 60-yillariga kelib, O'zbekiston SSR iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rinni egallab kelardi. Mamlakat umumiy ishlab chiqarishining qariyb 40 foizi agrar sohadan kelib chiqqan.

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari iqtisodiy-geografik joylashuvi, iqlim sharoiti va suv resurslariga ko'ra mamlakatning janubiy qishloq xo'jalik bazasini tashkil etgan.

Bu hududlarda asosiy ishlab chiqarish yoʻnalishlari quyidagicha boʻlgan: **Surxondaryo viloyati** – paxtachilik, chorvachilik va sabzavotchilik hamda **Qashqadaryo viloyati** – paxtachilik, bogʻdorchilik va gʻallachilik.

1960-yillarda har ikki viloyatda yangi irrigatsiya tizimlari qurilib, sugʻoriladigan yerlar maydoni 1,5-2 barobarga kengaygan. Masalan, 1960 yilda Surxondaryoda sugʻoriladigan yerlar 210 ming gektarni tashkil etgan boʻlsa, 1980 yilga kelib bu koʻrsatkich 364 ming gektarga yetgan. Natijada 20 yil ichida sugʻoriladigan yer maydonlari 154 ming gektarga koʻpaygan. Bu esa Surxondaryo viloyatining qishloq xoʻjaligi, xususan, sugʻorish tarmoqlarining kengayishi va qishloq xoʻjaligi mahsuldorligini oshirish borasidagi rivojlanishni koʻrsatadi. [1]

1-jadval

1960-1980 yillarda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida sugʻoriladigan yerlar va asosiy qishloq xoʻjalik mahsulotlari hajmi. [2]

Yillar	Sugʻoriladigan yerlar (ming ga)	Paxta hosili (ming tonna)	Don hosili (ming tonna)	Chorva bosh soni (ming bosh)
1960	210 (S), 185 (Q)	312 (S), 290 (Q)	42 (S), 57 (Q)	460 (S), 510 (Q)
1970	287 (S), 248 (Q)	415 (S), 398 (Q)	55 (S), 73 (Q)	540 (S), 620 (Q)
1980	364 (S), 309 (Q)	528 (S), 502 (Q)	66 (S), 91 (Q)	610 (S), 730 (Q)

Izoh: (S) – Surxondaryo viloyati, (Q) – Qashqadaryo viloyati

1960-1980 yillarda paxta hosilining oʻsish dinamikasi (ming tonna) 1960 yildan 1980 yilgacha Surxondaryo viloyatida paxta hosili 69 foizga, Qashqadaryo viloyatida esa 73 foizga oshgan. Bu natija qishloq xoʻjaligini ixtisoslashtirish va yangi yerlarni oʻzlashtirish siyosati samarasi hisoblanadi. [3]

2-jadval

1960-1980 yillarda asosiy qishloq xoʻjalik tarmoqlaridagi ishchi kuchi va mehnat samaradorligi [4]

Yillar	Ishchi kuchlari (ming kishi)	Mexanizatsiya darajasi (%)	Bir ishchi hisobiga mahsulot (soʻm hisobida)
1960	187	23	1 120
1970	210	46	1 740
1980	235	68	2 310

Bu jadvaldan koʻrinib turibdiki, 20 yil davomida mexanizatsiya darajasi qariyb 3 barobar oshgan. Biroq ishchi kuchining koʻpayishi mehnat samaradorligi oʻsishi bilan mutanosib boʻlmagan, chunki paxtachilikda qoʻl mehnatining ulushi katta boʻlib qolgan. [5]

Ixtisoslashtirish siyosati va uning amalga oshirilishi 1960-1970-yillardan boshlab, SSSRda “qishloq xoʻjaligini kompleks rivojlantirish dasturlari” amalga oshirildi. Bu dasturlar asosida har bir hududda ixtisoslashtirish yoʻnalishlari belgilandi.

Xususan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining qishloq xoʻjaligi ham faol oʻzlashtirilgan hududlarga aylanib bordi. Tabiiy-iqlim sharoiti, yirik daryolar va irrigatsiya tizimlarining mavjudligi sugʻoriladigan dehqonchilik uchun qulay shart-sharoitlar yaratgan. Bu

hududlarda 1960-1980-yillarda yirik loyihalar amalga oshirildi: Kambar, Tupalang, Sherobod va Qashqadaryo sug'orish tizimlari qurilib, ekin ekiladigan maydonlar kengaytirildi va hosildorlik ko'lamini oshirildi. Iqtisodiyotning asosiy yo'nalishi bo'lib paxtachilik qolgan, shu bilan birga ichki ehtiyoj uchun donchilik, polizchilik va chorvachilik ham rivojlantirildi. [6]

Surxondaryo viloyatida paxtachilikka asosiy e'tibor qaratilgan bo'lib, paxta maydonlari umumiy yer fondining 45-50 foizini tashkil etgan. Qashqadaryo viloyatida esa bog'dorchilik va chorvachilik sohalariga katta ahamiyat berildi.

Masalan, 1975 yilda Surxondaryo viloyatidagi 36 ta kolxoz va sovxozning 28 tasi paxtachilikka ixtisoslashtirilgan bo'lsa, Qashqadaryo viloyatidagi 42 xo'jalikning 16 tasi bog'dorchilikka yo'naltirilgan. [7]

XX asrning 1960-1980-yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligining ixtisoslashtirilishi, ayniqsa Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari misolida, mamlakat iqtisodiyotining industrializatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda kechdi. Bu davrda davlat siyosatining asosiy maqsadi – qishloq xo'jaligida yuqori samaradorlikka erishish, eksportbop mahsulot hajmini ko'paytirish va resurslardan oqilona foydalanish orqali umumiy iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'lgan.

Ixtisoslashtirish natijasida har bir hududning iqlimiy va agrotexnikaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, muayyan turdagi ekinlar yetishtirishga e'tibor kuchaytirildi. Jumladan, Surxondaryo viloyatida sabzavotchilik va bog'dorchilik, Qashqadaryoda esa paxtachilik ustuvor sohalar sifatida rivojlantirildi. Bu esa hosildorlikning oshishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining ko'payishi va mamlakatning ichki bozorida ham, tashqi savdoda ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qildi.

Sovet davrida amalga oshirilgan markaziy rejalashtirish tizimi qishloq xo'jaligidagi resurslar – yer, suv, mehnat, texnika va mineral o'g'itlarning tizimli taqsimlanishini ta'minladi. Bu orqali ishlab chiqarish jarayonida ma'lum barqarorlik yaratildi, mahalliy xo'jaliklar orasida kooperatsiya kuchaydi. Ayrim hollarda qishloq xo'jaligi mashinalari parkini yangilash, yangi irrigatsiya kanallarini qurish va agrotexnika tadbirlarini joriy etishda davlat qo'llab-quvvatlovi katta ahamiyat kasb etgan.

Paxtachilikning rivojlanishi O'zbekistonni ittifoq miqyosidagi asosiy paxta etkazib beruvchi hudud sifatida tanitdi. Bu mamlakatning iqtisodiy integratsiyasini mustahkamladi, sanoat (ayniqsa to'qimachilik) sohalarini uchun xom ashyo bazasini yaratdi. Shu bilan birga, paxta eksporti orqali respublika uchun muhim valyuta tushumlari ta'minlandi, tashqi savdo aylanmasi ortib bordi. Biroq, bu ixtisoslashtirish siyosati barcha sohalarda ham ijobiy natija bermadi. Uning bir qator salbiy oqibatlarini keyinchalik ekologik muammolar va ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarni keltirib chiqardi. [8]

Paxtachilikka bir yoqlama e'tibor qaratish natijasida yer resurslaridan ortiqcha foydalanish, irrigatsiya tizimlarining sun'iy ravishda kuchaytirilishi tuproqning tuzlanishi va degradatsiyasini tezlashtirdi. Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylaridagi ko'plab maydonlar ortiqcha sug'orish va mineral o'g'itlarning me'yoridan ortiq ishlatilishi sababli ekologik jihatdan yemirildi. Bu holat biologik turfaalikning kamayishiga, ayrim o'simlik va hayvonot turlarining yo'qolib ketishiga olib keldi. [9]

Paxtachilikka ixtisoslashuv natijasida g'allachilik, sabzavotchilik va chorvachilik kabi sohalar e'tibordan chetda qoldi. Bu esa aholini ichki ehtiyojini qondirishda bog'liqlikni oshirdi va oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, 1970-1980-yillarda oziq-ovqat mahsulotlarini ittifoqning boshqa hududlaridan tashib kelish holatlari ko'paygan.

Paxtachilik mavsumida aholining katta qismi, jumladan talabalar va xizmatchilar ham paxta terimiga jalb qilingan. Bu ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalaridagi mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, qishloq aholisi ichida mehnat taqsimoti bir yoqlama tus olgan.

Ixtisoslashtirish jarayonida uchragan asosiy muammolar quyidagicha bo'lgan:

1. **Suv resurslari taqchilligi va irrigatsiya tizimlarining qarib qolishi.** Yangi maydonlarni sug'orish uchun suv yetishmasligi va mavjud kanallar orqali suvning samarasiz taqsimlanishi hosildorlikni pasaytirgan.

2. **Agrotexnika va mineral o'g'itlar bilan ta'minlashdagi uzilishlar.** Iqtisodiy rejalashtirishdagi muvozanatsizlik ayrim xo'jaliklarda o'g'it va texnika yetishmovchiligini keltirib chiqargan.

3. **Yer degradasiyasi va meliorasiya tizimining izdan chiqishi.** Uzoq yillar davomida intensiv foydalanish natijasida yerning strukturasi buzilib, tuzlanish va cho'llanish jarayonlari kuchaygan.

4. **Inson kapitalidagi cheklovlar.** Ixtisoslashuv mahalliy aholi uchun kasbiy tanlov imkoniyatlarini cheklab, bilim va malaka diversifikasiyasini susaytirgan.

Xulosa:

XX asrning 1960-1980-yillarida O'zbekistonda qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish, ayniqsa Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida, iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynadi. Biroq bu jarayonning ekotizimga, resurslar boshqaruviga va ijtimoiy barqarorlikka ta'siri chuqur tahlil qilinganda, uning ikki tomonlama xususiyatga egaligi namoyon bo'ladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Экономическое и социальное развитие Сурхандарьинской области. Статистический сборник. (ЦСУ) УзССР. – Ташкент, 1984. (Economic and social development of the Surkhandarya region. Statistical Bulletin. (CSO) Uzbek SSR. – Tashkent, 1984).
2. O'zbekiston SSR Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi 1960-1980 yillarda. – Toshkent: O'zdamnashr, 1982. (State committee on statistics of the Uzbek SSR. Agriculture of the Uzbek SSR in 1960-1980. – Tashkent: Uzdavnashr, 1982).
3. O'zbekiston SSR Qishloq xo'jaligi vazirligi hisobotlari (1970-1980 yy.). – Toshkent, 1979. (Reports of the Ministry of agriculture of the Uzbek SSR (1970-1980). – Tashkent, 1979).
4. SSSR Davlat reja qo'mitasi. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1980 году. – Москва: Финансы и статистика, 1981. (State planning committee of the USSR. The National economy of the Uzbek SSR in 1980. – Moscow: Finance and statistics, 1981).
5. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti yilnomasi (1960-1985 yy.). – Toshkent: Fan, 1986. (Yearbook of agricultural economics (1960-1985). – Tashkent: Fan, 1986).
6. Экономическое и социальное развитие Кашкадарьинской области. Статистический сборник. (ЦСУ) УзССР. – Ташкент, 1984. (Economic and social development of the Kashkadarya region. Statistical bulletin. (CSO) Uzbek SSR. – Tashkent, 1984); Экономическое и социальное развитие Сурхандарьинской области. Статистический сборник. (ЦСУ) УзССР. – Ташкент, 1984. (Economic and social development of the Surkhandarya region. Statistical bulletin. (CSO) Uzbek SSR. – Tashkent, 1984).
7. Saipova K. (2021). XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston qishloq xo'jaligining ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyasi. Tarix va sivilizatsiya, №3. – B. 45-59. (Saipova K. (2021). Socio-economic transformation of agriculture in Uzbekistan in the second half of the 20th century. History and civilization, №3. – Pp. 45-59).
8. Статистические сборники СССР и Узбекистана, 1960-1980 гг. (Statistical bulletins of the USSR and Uzbekistan, 1960s-1980s.).
9. Food and agriculture organization (FAO). Uzbekistan – Country profile / Agricultural overview (Hujjatlar va hisobotlar). FAO veb-sayti: <https://www.fao.org/> (Food and agriculture organization (FAO). Uzbekistan – Country profile / Agricultural overview (Documents and reports)).



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000